

## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-mart holatiga)

2019-yilning yanvar-fevral oylarida Viloyatda 576 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 303 taga ko'pdir.










Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1257 ta (11,6 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 10836 tani tashkil etgan.



*Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda.*

*Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.*

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar  
va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


Tarmoqlar nomi	Ro'yxatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
 Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1433	1269	42
 Sanoat	1440	1359	109
 Qurilish	1104	1042	70
 Savdo	3112	2867	204
 Tashish va saqlash	599	560	12
 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	700	648	85
 Axborot va aloqa	165	152	1
 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	133	130	3
 Boshqa turlari	2951	2809	50



**Ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslar.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*


2019-yilning 1-mart holatiga 11637 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 26,7 % savdo, 12,4 % sanoat, 9,5 % qurilish, 12,3 % Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,1 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda 25,5 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3605 ta), Sirdaryo (1856 ta), Sayhunobod (945 ta) va Bayovut (896 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (265 ta), Sardoba (438 ta) hamda Oqoltin (471 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


**Ro'yxatdan o'tgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda.**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






### Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 10836 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 1257 ta (11,6 %) ga o'sgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,5 % savdo, 12,5 % sanoat, 9,6 % qurilish, 11,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 6,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 5,2 % tashish va saqlash, 1,4 % axborot va aloqa, 1,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 25,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.


### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxlar ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Guliston shahri (3401 ta), Sirdaryo (1707 ta), Sayhunobod (917 ta), Boyaut (855 ta) va Yangiyer shahri (801 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (242 ta), Sardoba (421 ta) hamda Xovos (531 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.


### Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*






**Yangi tashkil etilgan yuridik shaxlar.**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-fevral oylarida 576 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 111,0 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shahri (142 ta), Sirdaryo (117 ta) va Boyovut (57 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Shirin shahri (11 ta) hamda Xovos (27 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (204 ta), sanoat (109 ta), qurilish (70 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (85 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (3 ta), axborot va aloqa (1 ta) hamda tashish va saqlash (12 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.


**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	01.03.2017 y.		01.03.2018 y.		01.03.2019 y.	
	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %	Korxonalar soni	ulushi, %
<b>Viloyat bo'yicha jami</b>	<b>334</b>	<b>100,0</b>	<b>273</b>	<b>100,0</b>	<b>576</b>	<b>100,0</b>
Savdo	84	25,1	73	26,7	204	35,4
Sanoat	60	18,0	42	15,4	109	18,9
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	83	24,8	59	21,6	42	7,3
Qurilish	34	10,2	34	12,4	70	12,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25	7,5	14	5,1	85	14,8
Tashish va saqlash	24	7,2	7	2,6	12	2,1
Axborot va aloqa	5	1,5	3	1,1	1	0,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2	0,6	2	0,7	3	0,5
Boshqa turlari	17	5,1	39	14,4	50	8,6

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning yillar kesimida soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*








## TIJORAT KORXONALARNI.

2019-yil 1-mart holatiga 8825 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2758 ta, oilaviy korxonalar – 108 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 5647 ta va boshqalar 312 tani tashkil etgan.

### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda *(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yil 1-mart holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 115 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 29 taga yoki 25,2 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda



## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar yillar kesimida soni, birlikda



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda.




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumani (49 ta yoki jamidagi ulushi 42,6 %), Guliston shahri (23 ta yoki 20,0 %) va Yangiyer shahri (14 ta yoki 12,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xovos tumani (1 ta yoki 0,9 %), Guliston tumani (1 ta yoki 0,9 %) va Shirin shahri (2 ta yoki 1,7 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'p sanoatda 79 tani (68,7 %), savdoda 11 tani (9,6 %) hamda Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 8 tani (6,9 %) tashkil qilgan. Eng kamlari esa tashish va saqlashda 4 tani (3,5 %) boshqa tarmoqlarda 4 tani (3,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 tani (0,9 %) va qurilishda 8 tani (6,9 %) tashkil qilgan. Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlari hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda




### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar.

2019-yilning yanvar-fevral oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 5 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 taga ko'paygan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 1 ta, Qozog'iston Respublikasi – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 1 ta, Qirg'iziston Respublikasi-1 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2019-yil davomida Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar davlatlar kesimidagi ulushi, %



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (2 ta), savdo (1 ta), qurilish (2 ta) hissasiga to'g'ri keladi.


### Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, o'sish dinamikasi

	2018-yil yanvar-fevral		2019-yil yanvar-fevral	
	Jami	Umumiy soniga nisbatan %	Jami	Umumiy soniga nisbatan %
Sanoat	3	100,0	2	40,0
Savdo	-	-	1	20,0
Qurilish	-	-	2	40,0



#### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni. (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


2019-yil 1-mart holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 8777 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1- mart holatiga qaraganda 15,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, yani 2922 tasi (33,3 %) Guliston shahri, 1451 tasi (16,5 %) Sirdaryo, 747 tasi (8,5 %) Sayhunobod hamda 679 tasi (7,7 %) Yangiyer shahri hissalariga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 8777 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2859 tasi (32,6 %) – savdo, 1340 tasi (15,3 %) - sanoat, 1036 tasi (11,8 %) - qurilish, 1248 tasi (14,2 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 646 tasi (7,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 556 tasi (6,3 %) - tashish va saqlash, 145 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasi, 84 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, shuningdek 863 tasi (9,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2019-yil yanvar-fevral oylarida 553 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 122,1 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahri (135 ta), Sirdaryo (116 ta) va Mirzaobod (51 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Shirin shahri (9 ta), Oqoltin (25 ta) hamda Xovos (27 ta) tumanlarida tashkil etilgan.



## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (204 ta), sanoatda (109 ta), qurilishda (70 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (42 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta), axborot va aloqada (1 ta) hamda tashish va saqlashda (12 ta) tashkil etilgan.


### Oilaviy korxonalar soni



Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2019-yilning 1-mart holatiga 115 tani tashkil etib, ulardan 108 tasi yoki 93,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan


olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 36,1 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.

### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning** iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 44,5 % yoki 48 tasi sanoat, 21,3 % yoki 23 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,8 % yoki 16 tasi savdo, 12,0 % yoki 13 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,9 % yoki 2 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 1 tasi axborot va aloqa hamda 4,6 % yoki 5 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa Axborot va aloqa, tashish va saqlash kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Sirdaryo viloyati statistika  
boshqarmasi Statistika registrlarni  
yuritish bo'limi Tel.:67-225-31-00